



O'QUVCHILARNI BAHOLASHDA VA RAG'BATLANTIRISHDA YANGICHA G'OYALAR

Boltaboyeva Dilnoza¹, Karimova Maxpora²

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani 53- maktab boshlang'ich
sinf o'qituvchilari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6590393>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-may 2022
Ma'qullandi: 14- may 2022
Chop etildi: 28- may 2022

KALIT SO'ZLAR

Stimullash
rag'batlantirish, svetofo'r,
yashil, qizil, sariq.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilarni rag'batlantirishning samarali usullari, ushbu usullardan foydalanish texnologiyalari keltirilgan. Shuningdek maqolada rag'batlantirish nima uchun kerakligi haqida ham kerakli ma'lumotlar berilgan. Ushbu samarador usullardan foydalangan holatda dars o'tish kelgusi avlodni sog'lom raqobat ruhida tarbiyalash uchun yordam beradi.

Eng katta boylik – ilm marifat,
Eng katta me'ros – yaxshi tarbiya,
Eng katta qashshoqlik – bilimsizlikdir SH.M.
Mirziyoyev

Rag'batlantirish (stimullash) deganda, fikrlashga, his etishga va faoliyatga jalb etish, turtki berish, kuch berish tushuniladi. U yoki bu omilning o'quvchi shaxsiga ta'sirini mustahkamlash va kuchaytirish maqsadida stimullovchi metodlar qo'llaniladi va bularning ichida eng ko'p qo'llaniladigani musobaqalarni rag'batlantirishdir.

Odatda, musobaqalarni turli sinflar o'rtasida eng yaxshi o'zlashtirish bo'yicha o'tkazish, shuningdek, eng ko'p sher yodlash, eng ko'p misol yechish, eng yaxshi taklif, eng toza daftar, eng pokiza kitob, eng ko'p daraxt, gullar o'tqazish, sinfni namunali saqlash kabi yo'nalishlarda o'tkazish maqsadga muvofiq.

Musobaqalar, odatda, guruhlar o'rtasida, yakka tartibda, jamoalar orasida o'tkaziladi.

Musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish davomida oshkorlik, aniqlik, natijalarni qiyoslash, halollik, do'stlik, ilg'or tajribalarni amaliyotda qo'llash va rag'batlantirish qoidalariga amal qilish kerak.

Rag'batlantirish - ayrim o'quvchilar yoki jamoalar xulqi va faoliyatini jamoatchilik tomonidan ijobiy baholash usuli hisoblanadi. Uning stimullovchi roli o'quvchi tomo nidan bajarilayotgan va amalga oshirilayotgan ishning hayotdagi talqinini jamoatchilik tomonidan tan olinishidir. O'quvchi bunday bahodan qoniqish hosil qila borib, unda o'zidagi kuch, imkoniyatga ishonchi ortadi. SHuni nazarda tutish kerakki, mahqullash va rag'batlantirish har doim ham, hamma yerda ham bir xil natija beravermaydi. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati tarbiyaviy ishning natijasidagina emas, balki uni keltirib chiqaruvchi motiv va faoliyat usullarida hamda baholanib



borilishida ko'rinadi. Bolani o'z intilishlarining moddiy rag'batlantirilishi emas, balki tarbiyachi tomonidan mahqul lanishi qimmatli ekanligiga o'rgatib borish kerak. Ozgina qilingan ishga ham mukofot kutishdan yomoni yo'q.

Rag'batlantirishga, ayniqsa, yetarli darajada qat'iyatli bo'lmagan bolalar ko'proq muhtoj bo'ladi. Rag'batlantirish metodidan kichik va o'smir yoshidagi bolalar tarbiyasida foyda lanish yaxshiroq samara beradi. Chunki bu yoshdagi bolalar o'z xulqi va faoliyatini baho lashga o'ta sezgirlik, chanqoqlik bilan qaraydilar. O'qituvchi ortiqcha erkalatib yuboril gan yoki e'tibordan chetda qolgan o'quvchilarga alohida diqqatini qaratmog'i zarur. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ta'sir kuchi ko'pchilik tomonidan obhektiv qo'llab-quvvat lan ishiga bog'liq.

Rag'batlantirishning ko'plab usullari mavjud bo'lib, shulardan, mahqullash, maqtash, ishonch bildirish, qayd etish, buyruq yo'li bilan minnatdorchilik bildirish, ko'pchilik oldida mukofotlash, rasmga tushish va boshqalarni keltirish mumkin.

Muhtaram prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning kuni kecha 2020-yil 29-dekabrdagi murojaatnomasi butun

O'zbekiston xalqi bilan birgalikda, biz oqituvchilarni ham birdek quvontirdi. O'qituvchi nomini yuksaklarga kotarish, oylik maoshlarimizning 1.5 barobar ga oshirilishi, boshqa tuman, boshqa viloyatlarga qatnab ishlaydigan o'qituvchilarga qo'shimcha ustama ajratilishi, bilim, sifat va samaradorlikning birinchi o'ringa qo'yishi kabi bir qator chora tadbirlarni belgiladilarki, bu biz uchun katta imkoniyat bo'lishi bilan bir qatorda, bizlarga katta mas'uliyat ham yuklaydi. O'ylaymanki, shunday e'iroflarga sazovor holda fidokorona ish olib borishimizda ushbu "Svetafor tahlili" juda qo'l keldi vayuqori darajalarda prezidentimizga, xalqimizga labbay deya javob bera oladigan kadr lar, o'qituvchilarni soat sayin ko'payishiga imkon yaratadi.

Endi shunday rag'batlar biz ya'ni pedagoglar uchun yaratilyapti . Biz shu svetofo taxlilini o'quvchilarimizga qo'llab ko'rsak qanaqa bo'lar ekan. Keling shu haqida gaplashamiz .

O'quvchilarimiz uchun „Svetofo r“ taxlilini dastlab , har haftalik uchun o'tkazamiz .

Keyin , shu bir haftada o'quvchilarni olgan baholari , intilishi, odobi ga qarab svetoforga bo'linadi.

SIZ A'LOCHI , ODOBLI O'QUVCHISIZ

SIZ RIVOJLANAYOTGAN O'QUVCHISIZ

SINFIMIZ SONIGA EMAS, SIFATIGA HAM QO'SHILSANGIZ MAQSADGA MUVOFIQ BO'LAR EDI



Shu tartibdagi foster qilinib xonaga ilinadi va bu nga rasmlar qo'yiladi. Bu rasmlar har hafta uchun o'zgaradi. Har bir haftadagi „YASHIL “ rangda bo'lgan o'quvchilarni rag'batlantirib boriladi qolaversa u o'quvchilarni royhati shakllantiriladi. Oyni oxirida 4 haftalik „YASHIL “ rangda bolgan o'quvchilarni baholar jamlanmasi ko'rib chiqiladi. Keyin ularni eng ko'p bal olganlari va odoblisi ajratib olinib „ Oyni eng faol o'quvchisi “ bo'lib rag'batlantiriladi.

O'quvchini Ota yoki Onasi chaqirtirilib maktab rahbariyati va o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

Ushbu metoddan foydalanish yaxshi natija berishiga ishonaman. O'quvchi ozini pastdagi qizil rangda turganini ko'rsa yashilga o'tgisi kelib yaxshi o'qiydi . Yashilda turgan o'quvchi esa pastdagi rangga o'tib qolishdan qo'rqib yana ham yaxshiroq o'qiydi. Sinfda sog'lom raqobat shakllanadi.

References:

1. N. U. Bikbayeva, E. Yangabayeva, K.M.Girfanova 4-sinf Matematika "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2017
2. Jumayev M.E . "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan
3. laboratoriya mashg'ulotlar i" T. "Yangi asr avlodi" 2006 y.